

## FARZAND TARBIYASIDA MAKTAB, OTA-ONA VA MAHALLANING O'ZARO HAMKORLIGI

**Alisher Toshpulatov Abdilboqiyevich**

Namangan viloyati Uychi tumani MMTBga qarashli 9-sonli maktab direktori

**Annatotsiya:** Sharq mamlakatlarda tarbiya eng muhim bo'lgan unsurlardan ekanligi hech kimga sir emas, albatta. Bizning jamiyatimizda bola tug'ilgandan boshlab unga tarbiya, odob-axloq qoidalari o'rnatiladi va uqtiriladi. Har bir oilaning o'ziga xos farzand tarbiyalash usullari, texnologiyalari mavjud. Mazkur maqolamizda aynan shu haqida so'z boradi ya'ni farzand tarbiyalashda sharq mutafakkirlarining so'zlari, farzand tarbiyasida maktab, mahalla va ota-onanining o'zaro hamkorligi doirasida haqida fikr yuritamiz.

**Abstract:** It is certainly no secret that education is one of the most important elements in Eastern countries. In our society, from the moment a child is born, he is taught and taught the rules of etiquette. Each family has its own methods and technologies for raising children. In this article, we will talk about this, that is, we will think about the words of eastern thinkers in raising children, in the framework of mutual cooperation of school, neighborhood and parents in raising children.

**Аннотация:** Конечно, ни для кого не секрет, что образование является одним из важнейших элементов в странах Востока. В нашем обществе с момента рождения ребенка его учат и учат правилам этикета. В каждой семье свои методы и технологии воспитания детей. В этой статье мы поговорим об этом, то есть подумаем над словами восточных мыслителей в воспитании детей, в рамках взаимного сотрудничества школы, соседства и родителей в воспитании детей.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, odob, yetti mahalla, ota-ona, maktab, sharq mutafakkirlari

Qadim-qadim o'tmishdan farzand tarbiysi Sharq mamlakatlari uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Dono xalqimizda "Bola odobi bilan aziz" degan maqol bekordanbekorga klib chiqqan emas, odob, yaxshi xulq-atvor haqida xalqimizning boy adabiyotida ko'plab asarlar dunyoga kelgan. O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ulaming kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalari muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. Keling mavzuyimizni boshlamasdan oldin dastavval, "tarbiya" tushunchasiga to'xtalib o'tsak. "Tarbiya" so'zi

arabcha "robba" fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioxasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir" Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat ila o'stirishdir" Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas'uliyati bardavom bo'ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi. Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamic. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor. Dunyodagi odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'pilagini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mubolag'a yo'q. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda.

O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini bergenliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib bergenliklariga guvoh bo'lamic.

Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. "Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi".

Dono xalqimizda shunday go'zal naql bor, "Bitta bolaga yetti mahalla ota-ona", ushbu maqol bejizga kelib chiqqan emas, mazkur maqolamiz aynan shu haqida. Bolaning yoshligidan boshlab asosiy vaqtiko'proq ko'chada o'tadi, bu hech kimga sir emas. Yarim kun ota-onasining ardog'ida bo'lsa, yarim maktabning nazaratida bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, farzand tarbiyasiga faqat ota-ona ta'sir qila olmaydi, uning voyaga yetishida bevosita ham maktab, ham mahallaning o'rni judayam katta. Ota-onalar shuning ham har doim hushyorlikka chaqiriladi. Bizning o'zbekchiligidan yoshroq bir bola xato qilayotganini ko'rgan keksa bir odam uning yonidan nasihat qilmaguncha shunchaki befarq o'tib keta olmaydi. Bitta bolaning taqdirida ham oila muhiti, ham maktab, ham mahalla katta rol o'ynaydi. Ularning o'rni farzand

kelajagida beqiyos. Agar mana shu 3 ta nuqta birlashgan holda ish olib borishsa, qanchadan-qancha tarbiyasi qarovsiz farzandlar taqdiri o’zgarishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

- A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.
- M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
- O.Xasanboeva, J.Xasanboev, H.Homidov "Pedagogika tarixi" - "G’afur G’ulom" nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. -T.: 2004 y.